

7. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга кураимиз.-Тошкент, Ўзбекистон, 2017.

8. Мирзиёев Ш. Қонун устиворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганнинг 24 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маъруза 2016 йил 7- декабрь.- Т., Ўзбекистон 2017.

9. Alimo Farina/ Principles and methods in landscape ecology. Towardand ciense of landscape. The University of urbino Italy. Published by Springer/ P/o. Box 17,3300 A A Dordrecht, The Netherlands. 2006.

10.Jala Makhzoumi and Gloriya Pingetti/ Ecological Landscape Design and Planning. E/FN SPON. An imprint of Routledge. London and New York. 2005.

11.Tom Turner. Landscape planning and environmental impact design. London(UK) and Bristol(USA). This edition published in the Taylor/ Francis e-Library, 2005.

12.Арманд Д.Л. Наука о ландшафте. -М.: 1975

13.Николаев В.А. Ландшафты азиатских степей. -М.: 1999.

**Аxborot manbalari**

[www/Ziyo.net](http://www.Ziyo.net)  
[www.geogr/msu.ru](http://www.geogr/msu.ru)  
[www.MGPU.ru/materials/GEOGRAPH.swf](http://www.MGPU.ru/materials/GEOGRAPH.swf)

7.	<b>Termiz davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.</b>
8.	<b>Fan (modul) uchun ma'sul:</b> Umarova M. - TerDU, geografiya kafedrası katta o'qituvchisi Xasanov P. – TerDU, geografiya kafedrası o'qituvchisi
9.	<b>Taqrızchilar:</b> Abdunazarov H.M. – TerDU, geografiya kafedrasining , g.f.n. dotsenti Eshboyev B. – Qarshi DU, geografiya kafedrası o'qituvchisi, g.f.n

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**



«TASDIQLAYMAN»  
 Termiz davlat universiteti rektori  
 A.R.Maraximov  
 № 08 2023 yil

**LANDSHAFTSHUNOSLIK**  
*fanidan*

**O'QUV DASTURI**

Bilim sobasi: 500000 – Tabiiy fanlar, matematika va statistika  
 Ta'lim sohasi: 530000 – Fizika va tabiiy fanlar  
 Ta'lim yo'nalishi: 60530400 – Geografiya

Fan/modul kodi LANB206	O'quv yili 2023-2024	Semestr 4	ECTS-kreditlar 6
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4
<b>Fanning nomi</b>	<b>Auditoriya mashg'ulotlari (soat)</b>	<b>Mustaqil ta'lim (soat)</b>	<b>Jami yuklama (soat)</b>
1.	Landshaftshunoslik 60	120	180
<b>Fanning mazmuni</b>			
<p><b>Fanni o'qitishdan maqsad</b> – Landshaftshunoslik fan va amaliyotning keng yo'nalishlarini ifodalovchi fan bo'lib, Yer landshaft qobig'ining bir butunligi, uning komponentlari bir-biri bilan chambarchas bog'liq va aloqador ekanligi, ular orasidagi murakkab modda va energiya almashuv jarayoni mavjudligi, landshaft qobig'ini tashkil qiluvchi geosistemalar haqidagi bilimlarni shakllantiradi.</p> <p>Fanning vazifasi – talabalarni nazariy bilimlar, amliy ko'nikmalar, landshaftlarning dinamikasi, rivojlanishi va maxsus faoliyatini bajarish jarayonlariga uslubiy yondashuvni o'zlashtirish hamda ilmiy dunyoqarashini shakllantirish, landshaftlardagi jarayonlarni mustaqil tekshirish ko'nikmalariga ega bo'lish vazifalarini bajaradi.</p>			
<p><b>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</b>  <b>II. I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</b></p> <p><b>1-mavzu. Landshaftshunoslikning yuzaga kelishi va rivojlanishi</b>  Landshaftshunoslikning fan sifatida yuzaga kelishi. Landshaftshunoslikning rivojlanish tarixi. Landshaftshunoslikning yuzaga kelishida xorijiy olimlarning hissalar. O'zbekistonda landshaftshunoslikning rivojlanishi.</p> <p><b>2-mavzu. Landshaft haqidagi asosiy tushunchalar</b>  Landshaft termini tushunchasi. Landshaft tushunchasining har xil talin etilishi. Landshaft regional birlik, tipologik birlik tushunchasi, umumiy tushuncha, landshaft regional - tipologik tushuncha.</p> <p><b>3-mavzu. Landshaft tashkil qiluvchi komponentlar va landshaftlarning morfologik qismlari.</b>  Landshaft tashkil qiluvchi komponentlar. Komponentlarning xususiyatlari. Landshaft hosil qiluvchi omillar. Iqlim, relyef, tektonik harakatlar, oqim va h.k. Landshaftlarning morfologik qismlari: joy, urochishe, fatsiya. Fatsiya landshaftlarning eng kichik morfologik qismi ekanligi. Fatsiyaning bir butunligi va bo'linmasligi. Fatsiyalarning o'ziga xos xususiyatlari.</p> <p><b>4-mavzu. Landshaft hosil qiluvchi omillar.</b>  Landshaft tashkil qiluvchi komponentlar, omillar va landshaftning tarkibiy</p>			

qismlari. Landshaftlardagi aloqadorliklar. Vertikal va gorizontal, to'g'ri va teskari, ijobiy va salbiy aloqadorliklar va ta'sirlar. Landshaftlarning ichki tuzilishini tahlil qilishda turli modellardan foydalanish. Landshaft modellari landshaftlarning tarkibiy qismlari hamda morfologik qismlari orasida bo'ladigan aloqadorliklar haqida umumiy tasavvur hosil qilishi

**5-mavzu. Landshaftlardagi aloqadorliklar va ta'sirlar.**  
Landshaftlardagi aloqadorliklar va ta'sirlar. Vertikal va gorizontal, to'g'ri va teskari, ijobiy va salbiy aloqadorliklar va ta'sirlar. Landshaftlarning ichki tuzilishini tahlil qilishda turli modellardan foydalanish.

**6-mavzu. Landshaftlarning chegaralari.**  
Landshaft chegaralari. Aniq, keskin chegaralar va orali zonalar. Ekon tushunchasi. Landshaft chegaralarini aniqlash va kartaga tushirish masalalari.

**7-mavzu. Landshaftlarning maxsus faoliyati**  
Landshaftlarning maxsus faoliyati. Landshaftlarda energiyaning o'zgarishi. Landshaftlardagi geografik jarayonlar. Landshaftlarda moddaning biokimyoviy aylanishi va landshaftlarning biomahsuldorligi. Landshaftlarning maxsus faoliyatini o'rganishdagi geokimyoviy va geografik yondashishlar.

**8-mavzu. Landshaftlarning dinamikasi va rivojlanishi**  
Landshaftlarning dinamikasi va rivojlanishi. Landshaftlarning o'zgarishi, landshaftlardagi asl holiga qayta oladigan va asl holiga qayta olmaydigan o'zgarishlar, "invariant" va "landshaftning holati" tushunchalari. Landshaftlarning yoshi.

**9-mavzu. Yer yuzida landshaftlarning tabaqalanish omillari va qonuniyatlari.**

Yer yuzida landshaftlarning tabaqalanish omillari va qonuniyatlari. Zonalik, azonalik, provintsiallik, sektorlik. Landshaftlarning balandlik bo'ylab mintaqalanishi va landshaft yarustlari.

**10-mavzu. Landshaftlarni tasniflash masalalari**  
Landshaftlarni tasniflashning asosiy printsiplari. Ularni tasniflash masalalari. Landshaftlarni tasniflashdagi turli sxemalar va tasnif birliklari.

**11-mavzu. Landshaft va inson aloqadorligi masalalari. Antropogen landshaftlar haqida tushuncha.**

Landshaftlarning tabiiy resurs imkoniyati. Insonning landshaftlarga ta'siri. Tabiiy-antropogen landshaftlar va ularning xususiyatlari. Antropogen landshaft, madaniy landshaft tushunchalari. Madaniy landshaftlar, ularni barpo qilishning ilmiy-geografik asoslari. Landshaftlarni muhofaza qilish va buzilgan yerlarni qayta tiklash. Antropogen landshaftlarni tasniflash tajribalari.

### 12-mavzu. Amaliy landshaftshunoslik. Landshaftlarni baholash.

Amaliy landshaftshunoslikning mazmuni va vazifalari. Landshaft kartalari va ulardan foydalanish. Landshaftlarni xo'jalikning turli tarmoqlarida foydalanish nuqtai nazaridan baholash. Baholashning asosiy printsiplari va metodlari.

### 13-mavzu. Landshaftlar taraqqiyotini prognozlash.

Landshaftlar taraqqiyotini prognozlash. Prognozlashning printsiplari va metodlari. Uning asosiy printsiplari va metodlari.

### 14-mavzu. Landshaft planirovkasining nazariy va metodologik asoslari

Landshaft planirovkasining nazariy asoslari. Madaniy landshaft-landshaft planirovkasining metodologik asosi. Landshaft planirovkasining yo'nalishlari. Landshaft planirovkasi hududni ekologik tashkil etish usuli sifatida. Landshaft planirovkasining yo'nalishlari: yerdan foydalanish, turizm va rekreatsiya, shaharsozlik, gidrotexnik inshootlar va suvni muhofazalash zonalarini va boshqalar.

### 15-mavzu. Landshaft rejalashtirish amaliyoti.

Landshaft planirovkasining hududiy darajalari va ob'ektlari. Landshaft planirovkasi tizimida ekologik karkas. Landshaft rejalashtirishda ma'muriy va hududiy birliklar. Landshaftlarni rejalashtirish komponentlar doirasida amalga oshirish.

## III. Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha tavsiya va ko'rsatmalar

Nº	Mavzular
1	Komponentlar kartalarini qiyosiy tahlil qilish va tabiiy komplekslarning karta-gipotezasini yaratish
2	Landshaft kartalarini tahlil qilish asosida landshaftlar tasnifini aniqlash, shartli belgilarni o'rganish.
3	O'zbekiston landshaft kartasi asosida landshaft kesmalari tayyorlash.
4	Yirik masshtabli landshaft kartalarini tuzishning asosiy xususiyatlari va metodlari.
5	O'rtacha masshtabli landshaft kartalarini tuzishning asosiy xususiyatlari va metodlari.
6	Mayda masshtabli landshaft kartalarini tuzishning asosiy xususiyatlari va metodlari.
7	O'zbekiston landshaftlari kartasini chizish
8	Landshaftlarda moddaning biogeokimyoviy aylanishi
9	Landshaftning tasniflash sxemalari va tasnifiy birliklarini o'rganish
10	O'z o'lkasi (okrugi) landshaftlari tasnifi (O'zbekiston landshaftlari kartasi asosida)
11	Antropogen landshaftlar va ularning tasnifi (o'z okrugi misolida)

12	Turli tabiiy geografik okruglarning landshaft xususiyatlarini yoritib berish.
13	Landshaftlarni baholash
14	Landshaftlardan xo'jalikda oqilona foydalanish sxemasini tuzish
15	Ixtiyoriy tanlab olingan landshaft maydonini to'g'ri tashkil etish sxemasini tuzish

## IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar fanidan mustaqil ish mavzulari taqsimoti

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

Nº	Mavzular
1	O'zbekistonda landshaftshunoslikning rivojlanishi
2	Landshaftdagi ilmiy yo'nalishlar va ularning mazmuni
3	Landshaft komponentlari o'rtasidagi o'zaro ta'sir va aloqadorliklar.
4	Landshaftlarning hududiy tabaqlanish omillari
5	Landshaftlarning tabaqlanishida zonalik va regionallik
6	Landshaftlarning balandlik mintaqalanishi va landshaft yarustlari
7	Landshaftlarning chegaralari
8	Landshaftlarni o'rganishda modellashtirish
9	Landshaftlarning maxsus faoliyati
10	Landshaftlarda modda va energiya harakati
11	Landshaftlar biogeokimyoviy aylanma harakatlar
12	Landshaftlar dinamikasi
13	Landshaftlarning yoshini aniqlash masalalari
14	Landshaftlar barqarorligi
15	Landshaftlarni tasniflash bo'yicha tri o'limlarning sxemalari
16	Landshaftlarni kartaga tushirish metodlari
17	Geotizimlar teraxiyasi
18	Landshaftlarning tizim sifatida xususiyatlari
19	Antropogen landshaftlar va ularning turlari.
20	Antropogen landshaftlarning strukturasi va xususiyatlari
21	Cho'l landshaftlari va ulardan oqilona foydalanish printsiplari.
22	Tog' landshaftlari va ularning morfologik tuzilishi
23	Landshaftlar geokimyosi
24	Yer yuzasi landshaft turlari
25	Landshaftlarda namlikning aylanishi
26	Geotextizimlar va madaniy landshaftlar.
27	Landshaftlar tipologiyasi
28	O'zbekiston landshaftlarining asosiy turlari.
29	Landshaftlar taraqqiyotini baholash
30	Landshaft planirovkasi yo'nalishlari
31	Quyida Amudaryo tabiiy geografik okrugi landshaftlarini qishloq xo'jaligi maqsadida baholash

32	Qizilqum tabiiy geografik okrugi landshaftlarini qishloq xo'jaligi maqsadida baholash
33	Quyí Zarafshon tabiiy geografik okrugi landshaftlarini qishloq xo'jaligi maqsadida baholash
34	Ustyurt tabiiy geografik okrugi landshaftlarini qishloq xo'jaligi maqsadida baholash
35	Surxondaryo tabiiy geografik okrugi landshaftlarini qishloq xo'jaligi maqsadida baholash
36	Qashqadaryo tabiiy geografik okrugi landshaftlarini qishloq xo'jaligi maqsadida baholash
37	O'rtá Zarafshon tabiiy geografik okrugi landshaftlarini qishloq xo'jaligi maqsadida baholash
38	Mirzacho'l tabiiy geografik okrugi landshaftlarini qishloq xo'jaligi maqsadida baholash
39	SHirchiq – Ohangaron tabiiy geografik okrugi landshaftlarini qishloq xo'jaligi maqsadida baholash
40	Farg'ona tabiiy geografik okrugi landshaftlarini qishloq xo'jaligi maqsadida baholash
41	O'rtá Zarafshon tabiiy geografik okrugi landshaftlarini shaharsozlik maqsadida baholash
42	Surxondaryo tabiiy geografik okrugi landshaftlarini shaharsozlik maqsadida baholash
43	Mirzacho'l tabiiy geografik okrugi landshaftlarini shaharsozlik maqsadida baholash
44	SHirchiq – Ohangaron tabiiy geografik okrugi landshaftlarini shaharsozlik maqsadida baholash
45	Farg'ona tabiiy geografik okrugi landshaftlarini shaharsozlik maqsadida baholash

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

#### V Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetentsiyalar)

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: landshaftshunoslik tarixi; landshaft tushunchasining talqin etilishi; landshaftlarning ichki tuzilishi; landshaftlarning tabaqalanishi va omillari; landshaftlar dinamikasi, evolyutsiyasi va rivojlanishi; landshaftlarning maxsus faoliyati; landshaftlarni tasniflash; tabiiy-antropogen, antropogen, madaniy landshaft tushunchalari; amaliy landshaftshunoslik masalalari; landshaftshunoslikdagi ilmiy yo'nalishlar haqida *tasavvurga ega bo'lishi kerak*;

- landshaftlarning komponentlari, morfologik qismlari va ular orasidagi aloqadorliklarni tadqiq etish; landshaftlarni xo'jalik maqsadlarida baholash va xulosalar chiqarish *ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak*.

3

	<p>- landshaftlarning ichki tuzilishini va ularni ajratishni; landshaftlarning hududiy tabaqalanishini, ularning chegaralarini aniqlashni va kartaga tushirishni; landshaftlarning o'zgarishi va barqarorligini; landshaftlarning genezisi va yoshini aniqlashni; landshaftlarni tasniflashni; antropogen landshaftlarni aniqlash va tavsiflashni; landshaftlarni baholash va prognozlashni; landshaftshunoslik tadqiqotlarini tashkil etish hamda turli karta va asbob-uskunalar bilan ishlashni <i>bilishi va ulardan foydalana olishi kerak</i>;</p> <p><b>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. ma'ruzalar;</li> <li>2. interfaol keys-stadilar;</li> <li>3. seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);</li> <li>4. guruhlarda ishlash;</li> <li>5. taqdimotlarni qilish;</li> <li>6. individual loyihalalar;</li> <li>7. jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalalar.</li> </ol>
4	<p><b>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</b></p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishini topshirish.</p>
5	<p><b>Asosiy adabiyotlar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Zokirov Sh. S., Toshov X.R. Landshaftshunoslik. –T.: “Turon zamin”, 2016.</li> <li>Исаченко А.Г. Ландшафтоведение и физико-географическое районирование. –М.: 1991.</li> <li>Хорошев А.В., Авесаломова И.А., Дяконов К.Н. и др Теория и методология ландшафтного планирования. М.-:2019.</li> </ol>
6	<p><b>Qo'shimcha adabiyotlar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>4. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлатириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармони. ПФ-4947сон.Тошкент ш., 2017 йил 7 феврал.</li> <li>Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг қундалик қоидаси бўлиши керак. Мамлакатимизни 2016 йилда ижтимоий-иқтисодий ривожлатиришнинг асосий якунлари ва 2017 йилга мўлжалланган мажлисдаги нутқи. Халқ сўзи газетаси 2017 йил, 16 январь, № 11.</li> <li>Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Ўзбекистон Республикаси Президентини лавозимига киришиш тантанали маросимига бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқ, Тошкент, 2016. 56-б.</li> </ol>